

TARJIMANING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTLARI

Yo'ldosheva Muxlisa Voxidjon qizi
O'ZDJTU stajor-o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqola tarjimaning sotsiolingvistik aspektlarini atroflicha yoritishga bag'ishlanadi. Avvalo, sotsiolingvistika til va uning ijtimoiy shart-sharoitlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qiladi. Tarjimaga bunday yondashuv, eng avvalo, til birliklarini (leksika, fonetika, morfologiya, sintaksis va hokazo) ularning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishi bilan bog'liq masalalarni o'rghanishni talab etadi. Maqolada keltirilishicha, til ijtimoiy mazmunni o'zida aks ettiradi: uni qo'llovchi kishilarining yoshi, jinsi, kasbi, ta'lif darajasi, ijtimoiy mavqeい va boshqa omillar nutqiy faoliyatga ta'sir qiladi.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, tarjima, til va jamiyat, ijtimoiy kontekst, professional jargon, dialekt

Sotsiolingvistika va uning mohiyati.

SOTSIOLINGVISTIKA – tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, tilni mavjud ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda o'rghanadi. Ijtimoiy shart-sharoitlar deganda tilning haqiqatda amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tashqi holatlar majmui tushuniladi: jamiyatda tildan foydalanadigan insonlar, ushbu jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, til egalarining yoshi, ijtimoiy maqomi, madaniyat va ta'lif darajasi, yashash joyi, shuningdek, muloqot vaziyatiga qarab ularning nutqiy xatti-harakatlarida farqlanadir. Tilga sotsiolingvistik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini va ushbu ilmiy fanning "sof" tilshunoslikdagi farqini tushunish uchun uning kelib chiqishini ko'rib chiqish, boshqa lingvistik fanlar orasida maqomini, obyekti va sotsiolingvistik foydalanadigan asosiy tushunchalarni aniqlash, uning vakolati doirasiga kiradigan eng tipik muammolarni aniqlash, tadqiqot usullarini va XX asr oxiriga kelib shakllangan sotsiolingvistika yo'nalishlarini aniqlash zarur. Tilshunoslikda sotsiolingvistik yo'nalish o'z faoliyati davomida til sotsiologiyasi, sotsiologik lingvistika, sotsiologik tilshunoslik, lingvistik sotsiologiya, lingvosokabi tsiologiya, sotsiolingvistika, sotsial lingvistika bir necha turli nomlarga ega bo'lgan.

Sotsiolingvistikaning tarixi. Zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri, amerikalik tadqiqotchi Uilyam Labov uni ijtimoiy kontekstda tilni o'rghanuvchi fan sifatida ta'riflaydi. Ushbu ilmiy soha mutaxassislarining diqqat markazi tilning ichki tuzilishiga emas, balki tilni ishlatayotgan jamiyatdagi odamlarning undan qanday foydalanishiga qaratilgan. Shu bilan birga, tilning ishlashi va qo'llanilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillar hisobga olinadi: gapiruvchilarining turli ijtimoiy xususiyatlari (yoshi, jinsi, ta'lif va madaniyat darajasi, kasbiy faoliyati turi) dan tortib, aniq nutq aktining ijtimoiy sharoitlarigacha. Xo'sh, gapiruvchilarining qaysi xususiyatlari ularning nutqiga ta'sir qiladi?

1. Odam yashaydigan professional va ijtimoiy muhit. Bir kasbga mansub odamlar ko'pincha yopiq guruhlarni tashkil qiladi va bu guruhga mansublik belgisi bo'lgan o'ziga xos tilni shakllantiradilar. Hozirgi vaqtida bu dasturchilar va kompyuter bilan bog'liq bo'lgan kishilarning tilidir: monitor – ko'z, kompakt-disklar – quymoqlar,

foydalananuvchi – yuser va hokazo. Agar o'rganilayotgan mavzu bolaning nutqi bo'lsa, uning ota-onasining kasbga mansubligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. K. Chukovskiyning "От двух до пяти" ("Ikkidan beshgacha") nomli kitobida bolalar nutqining yorqin misollari keltirilgan: a) sotuvchining o'g'li: «Men hammani birdek yaxshi ko'raman, lekin onajonimni bir raqam ko'proq»; b) yozuvchining o'g'li: «Dada, shu karusellarning muharririga aytsangiz: men ham, nihoyat, uchib ko'rsam bo'lmaydimi?» Ushbu misollar odamning nutqi uning professional mansubligiga bog'liqligini ko'rsatadi.

2. Ta'lim xususiyatlari. Sotsiologlar texnik va gumanitar ziyyolilar nutqini o'rganish asosida shuni aniqladilar: texnik ziyyolilar nutqi ko'proq professional jargon ta'siriga duchor bo'ladi, gumanitar ziyyolilar nutqi esa ko'proq konservativ bo'lib, adabiy me'yorga bo'ysunadi.

3. Nutqiy vaziyat. Turli muloqot holatlari turli til vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu haqida sotsiolingvistika tug'ilishidan oldin ham A.S. Pushkin yaxshi tushunchaga ega bo'lib quyidagi jumllalarni yozgan: «Jamiyatda qo'shningizning tirsagiga teginib ketsangiz, juda yaxshi uzr so'raysiz. Lekin olomon ichida yurib, bir do'konchiga tegib ketsangiz, unga: "Mille pardon" demaysiz. Siz aravakashni chaqirasiz va unga: "Kolomnaga boshla," deysiz, "Marhamat qilib, Kolomnaga olib borishingizni iltimos qilaman," emas.» Keltirilgan misol turli holatlarda so'zlovchining muloqotda turli mavqega ega ekanligini ko'rsatadi: teng mavqeda (jamiyatda), muloqotdagagi hamkoridan ustun (do'konchi, aravakash), muloqotdagagi hamkoriga bo'ysunuvchi (boshliq – bo'ysunuvchi). Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan juft ijtimoiy rollar tizimi orqali bog'lanadi. Rolning turi nutqning xarakteri va nutqiy xulq-atvorini belgilaydi. Buyruq ohanglari o'qituvchi va shifokor nutqida tabiiydir (Nafas oling! Nafasni ushlang!) va bu intonatsiyalar ushbu kasb vakillari xizmat doirasidan tashqariga chiqqanda nojoizdir. Qanday holatlarda, qanday rollarda o'zini qanday tutish kerakligi haqidagi tasavvur til ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi.

4. Tilning ishlatilinishi insonning yashash joyiga bog'liq (janubda – malako, shimolda – moloko).

Sotsiolingvistikating obyekti va predmeti. Tadqiqotchilar otsiolingvistikating obyekti til, predmeti esa tilning ishlashi va nutq omillarini aniqlashdir degan xulosaga kelishgan. Sotsiolingvistikating yosh fan sifatidagi o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1) Ushbu fan kundalik hayotda xato qilishi va me'yorlarni buzishi mumkin bo'lgan odamlar bilan ham shug'ullanadi. Sotsiolingvistika uchun tilning ishlash xususiyatlari nimadan kelib chiqishini tushunish muhimdir;

2) Sotsiolingvistikani tilni uning ijtimoiy kontekstida o'rganuvchi fan sifatida aytish mumkin, chunki uning obyekti tilning ishlashi bo'lib, bu til ma'lum bir ijtimoiy tuzilishga ega bo'lgan jamiyatda amal qiladi.

Lingvistik fan sifatida sotsiolingvistika tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan muayyan munosabatda bo'ladi.

1) Dialektologiya bilan: Dialekt — bu tilning kommunikativ tizimining bir elementi bo'lib, u adabiy me'yor bilan muayyan munosabatda bo'ladi. Shu sababli,

sotsiolingvistika dialektologiyaning metod va usullarini informantlarning spontan nutqini kuzatish uchun qo'llaydi. Hozirgi rivojlanish bosqichida sotsiolingvistika nafaqat dialektologiya metodlari va g'oyalalariga murojaat qiladi, balki bu fanga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu informantlarni yanada batafsilroq pasportlashtirishni o'z ichiga oladi, ya'ni ularning jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, yashash joyi kabi ma'lumotlarni qayd etish bilan birga, dialektal nutq kuzatishlari olingan vaziyat sharoitlari va boshqa uzoq muddatli xususiyatlarini ham e'tiborga olishni anglatadi; 2) fFonetika bilan: Ilk sotsiolingvistik tadqiqotlar fonetik materiallar asosida amalga oshirilgan (M.V. Panov va U. Labov ishlarida). Olingan fonetik ma'lumotlar asosida til o'zgarishlarining ijtimoiy shartlanganligi va ijtimoiy omillarning til variativligiga ta'siri haqidagi sotsiolingvistik nazariy qoidalar shakllantirilgan; 3) Leksikologiya va semantika bilan: Chunki tilning leksik tizimi ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga eng sezgir ravishda javob beradi va jamiyatning guruhlarga bo'linishini aks ettiradi;

4) Psixolingvistika insonning nutqiy faoliyatini uning psixik jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganadi, sotsiolingvistika esa tilning rivojlanishi va faoliyatidagi ijtimoiy farqlarni o'rganadi. Bundan tashqari, sotsiolingvistika tilning ijtimoiylashuvi va bolaning ona tilini o'zlashtirish jarayonlarini ham tahlil qiladi. Ushbu jarayon intellektual-psixik xususiyatga ega bo'lganligi sababli, bu yerda psixolingvistika va sotsiolingvistikating manfaatlari kesishadi; 5) zullisonaynlik va ko'ptillilik muammolari bilan shug'ullanuvchi etnolingvistika ham, chunki zullisonaynlik va ko'ptillilik an'anaviy ravishda sotsiolingvistikating qiziqish doirasiga kiradi.

Tarjimaning sotsiolingvistik masalalari. Usmonning fikricha, tarjima - ma'lum lingvistik nutq ma'nosining boshqa tilda aqliy ifoda etilishini anglatadi, Aleksenko (2019) esa tarjimani ham til, ham madaniy murojaatlarni o'z ichiga olgan murakkab dual jarayon sifatida ta'riflagan. Dastavval tarjima faqat muloqot hamda Bibliya va dunyoviy matnlarni tarjima qilish uchun foydalanilgan. Nida (1968) o'zining "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" nomli asarida ko'pchilik odamlar faqat Muqaddas Bitiklarni tarjima qilish bilan shug'ullanganligini yana bir bor ta'kidlagan. O'tgan yillar davomida tarjima va tarjimashunoslikka turli ta'rif va yondashuvlar taklif qilindi. Misol uchun, Syuzan Basnet va Andre Lefebvr madaniy burilish nazariyasini taklif qildilar, bu esa tarjima nuqtai nazarini lingvistik nuqtai nazardan madaniy nuqtai nazarga o'zgartirishni rivojlantirdi. Shunday qilib, 1990-yillarning boshlarida nazariya tarjima jarayonida madaniy jihatdan katta nazariy va uslubiy siljishni ta'minladi. Matnlarni tarjima qilish endi yagona lingvistik faoliyat sifatida qaralishi mumkin emas. Tarjima sanoatining rivojlanishi va tarjimadagi akademik tadqiqotlar madaniy kontekstning muhimligini ta'kidladi. (Datton, 2017). Bunga qo'shimcha ravishda, tarjima va matn tahlili boshqa paradigmani talab qiladi.

Sotsiolingvistika tildan qanday foydalanish va qadriyatlarning unda qanday aks ettirilishi bilan shug'ullanadi. Sotsiolingvistika, shuningdek, tilning lingvistik qatlamlari, masalan, dialekt, jargon, og'zaki muloqot, tilning paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi, ayniqsa reklama beruvchilar va siyosatchilar tomonidan tilning suiste'mol qilinishi kabilar bilan shug'ullanadi. (Nida, 1968). Shu nuqtai nazardan, matnlarni tarjima qilish va tahlil qilishda sotsiolingvistikating yondashuvidan tarjima

qilingan matnda hech qanday tarafkashlik yoki kamsitishlar kam yoki umuman yo‘qligi asos sifatida qo‘llanilishi mumkin. Tarjimaga sotsiolingvistik yondashuv tanlash, filrlash va hatto senzura orqali nimani tarjima qilish mumkinligini yoki tarjima uchun nima maqbulligini aniqlaydi. Sotsiolingvistik yondashuvda tarjimon jamiyat uchun xizmat qiladi va bu kabi ijtimoiy-madaniy zamin biz tarjima qilayotgan hamma narsada mavjud. Biroq, so‘nggi paytlarda nazariya tanqidga uchradi. Pimga ko‘ra, ba’zilar matndan madaniyatga madaniy yondashuvni na innovatsion, na o‘ziga xos deb hisoblashadi, chunki u har doim tavsiflovchi paradigmaning intellektual fonining bir qismi bo‘lgan. Tadqiqotchilar matnlarni tarjima qilish va talqin qilishda sotsiolingvistikani hal qiluvchi omil sifatida sifatida ko‘rdilar. Ushbu tadqiqot matnlarni tarjima qilish va talqin qilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni, masalan: gender, madaniyat, semantika va pragmatika, shuningdek, tarjimonning mafkuralarini yoritib beradi.

Nida (2012) tilshunoslik va sotsiolingvistikani tilning o‘ziga xos vazifalarini tushunish va ko‘rib chiqishning foydali usullari sifatida aniqladi. Sotsiolingvistika ko‘proq tildan foydalanish, shuningdek, uning funksiyalarga bog‘liq qadriyatlar bilan shug‘ullanadi. Sotsiolingvistika shu tariqa tilning darajalari yoki leksik qatlamlari, ya’ni yuqori marosimlardan tortib to kundalik turmushgacha, dialektlar va tillar o‘rtasidagi raqobat, tillarning rivoji va yo‘qolib ketishi, jargonning roli, jargon va og‘zaki muloqot, gender farqlari va tilni suiiste’mol qilishni tahlil qiladi. Nida (2012) ga ko‘ra, tilda tarjima va talqinning mohiyatini tushunishda muvaffaqiyatga katta to‘sinqlik qiladigan ikkita jiddiy xato mavjud, masalan: tillar faqat so‘zlar va grammatikadan iborat degan sodda fikr va noto‘g‘ri talqin qilingan qarash. Tilning yagona vazifasi axborotni uzatishdir. U, shuningdek, tilda so‘z va grammatikadan iborat bir kodli tizimgina emas, balki shu kabi tizimlarning majmui mavjudligini ta’kidladi. Ekspressiv vazifa tilning psixologik va sotsiologik o‘zaro ta’siriga to‘g‘ri keladigan funksiyasini anglatadi. Biror kishi so‘zlarni muloqot qilish niyatisiz ishlatishi mumkin, ammo ekspressiv impuls ekspressiv maqsadlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Tarjimon tilni faqat so‘z va grammatikadan iborat degan fikrning noto‘g‘ri ekanligini anglagandan so‘ng, sotsiolingvistik xususiyatlar fonologiya, lug‘at, sintaksis va nutq kabi aloqaning butun spektriga qanday tegishli bo‘lishini hamda til bajaradigan vazifalarning keng doirasini anglab yetadi.

Shunday qilib, tarjimaning sotsiolingvistik aspektlari deganda jamiyat a’zolarining tilning ijtimoiy sharoitida qo‘llanishi va ularning yosh, mavqe, gender kabi farqlariga ko‘ra foydalanish xususiyatlarini tarjimada aks etish masalalari tushiniladi. Tarjima jarayonida sotsiolingvistik birliklar bilan bog‘liq tarjima muammollarini bartaraf etishda til birliklarini tarjimada ham ifodalash uchun funkksional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, tasviriy tarjima kabi tarjima usullari faol qo‘llanadi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G’. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘zbekiston milliy

ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.

4. Yo‘ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.

5. Sharipova F. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi xatlar (yozishmalar) tarjimasining pragmatik tahlili. Fil.fan.dok. dissertatsiya. – Termiz:2022. –155 b.

6. Yo‘ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.

7. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.

8. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.